

## O'zbekiston Respublikasi chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


### I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **88 686** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **439** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **88 247** tani tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-may oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **210 243,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **20,7 %** ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **38 880,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **125,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa **143 386,8** mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – **118,0 %**).


#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

2026- yil yanvar-may oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:  
[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

**Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes  
va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi**  
*yanvar-may oylari*



## II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **55 216** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **452** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **54 764** tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2026- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **209 361,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **15,4** %ga o'sdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi **68 203,2** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **128,2** %), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa **141 158,0** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **110,1** %) tashkil etdi. Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi **67,4** %ni tashkil etdi.


**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi**  
*2026- yil yanvar-may oylari, mlrd so'm*



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:  
[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari

2026- yil yanvar-may oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)


### III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2026- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **28 483** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **149** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **28 334** tani tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **94 441,1** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davriga nisbatan **11,1** %ga o'sdi. Savdo aylanmasining **75,5** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa **24,5** %ni tashkil etdi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi

2026- yil yanvar-may



#### IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), "Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning fizik hajm indeksi bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH Statistikasi qo'mitasi, 2011) xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalardan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistik ko'rsatkichlari norasmiy va yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

Ba'zi hollarda, jami va tarkibiy qismlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.

#### V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Xizmatlar sohasi statistikasi  
boshqarmasi

**Manzil:** 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.  
**Elektron pochta:** info@stat.uz  
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1290)

